



UDK: 94(575.1):338.43"196/198"

*Islombek ASLONOV,*

*Mustaqil izlanuvchi, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona, O'zbekiston*

*E-mail: arslonovislombek988@gmail.com, ORCID: 0009-0005-0265-5179*

*Farg'ona davlat universiteti professori, PhD N.Alimova taqrizi asosida*

## THE STATE OF AGRICULTURE IN THE UZBEK SSR IN THE 1960-1980s: COTTON MONOCULTURE AND ITS SOCIO-ECOLOGICAL CONSEQUENCES

Annotation

This article examines the development stages of agriculture in the Uzbek SSR during the 1960s-1980s, the intensification of cotton monoculture policy, and its profound impact on the socio-economic and ecological life of the republic. Based on historical and comparative analysis methodology, the article elucidates the emergence of cotton hegemony, the irrigation crisis, the Aral Sea disaster, health consequences for the population, and initial reforms on the eve of independence. Soviet statistical data, archival documents and international scientific publications were used as research sources.

**Key words:** cotton monoculture, Aral Sea disaster, agriculture, chemical pollution, irrigation crisis, socio-ecological consequences, Uzbek SSR, Soviet economic policy.

## ПОЛОЖЕНИЕ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА УЗБЕКСКОЙ ССР В 60-80-Е ГОДЫ XX ВЕКА: ХЛОПКОВАЯ МОНОКУЛЬТУРА И ЕЁ СОЦИАЛЬНО-ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ПОСЛЕДСТВИЯ

Аннотация

В данной статье анализируются этапы развития сельского хозяйства Узбекской ССР в 60-80-е годы XX века, усиление политики хлопковой монокультуры и её влияние на социально-экономическую и экологическую жизнь республики. На основе исторической и сравнительной методологии в работе раскрываются аральская экологическая катастрофа, кризис здравоохранения и первые реформы накануне независимости. В качестве источников исследования использованы советские статистические данные, архивные документы и международные научные публикации.

**Ключевые слова:** хлопковая монокультура, катастрофа Аральского моря, сельское хозяйство, химическое загрязнение, ирригационный кризис, социально-экологические последствия, Узбекская ССР, советская экономическая политика.

## XX ASRNING 60-80-YILLARIDA O'ZBEKISTON SSR QISHLOQ XO'JALIGI AHVOLI: PAXTA MONOKULTURASI VA UNING IJTIMOY-ÉKOLOGIK OQIBATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada XX asrning 60-80-yillarida O'zbekiston SSRda qishloq xo'jaligining rivojlanish bosqichlari, paxta monokulturasini siyosatining kuchayishi hamda uning respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik hayotiga ko'rsatgan ta'siri tahlil qilinadi. Tarixiylik va qiyosiy tahlil metodologiyasi asosida paxta yakkahokimligining vujudga kelishi, irrigatsiya inqirozi, Orol dengizi fojiasi, aholi sog'lig'iga keltirgan zararlar va mustaqillik arafasidagi dastlabki islohotlar ilmiy jihatdan yoritib berilgan. Tadqiqot manbalari sifatida sovet davri statistik ma'lumotlari, arxiv hujjatlar va xalqaro ilmiy nashrlardan foydalanilgan.

**Kalit so'zlar:** paxta monokulturasini, paxta yakkahokimligi, Orol dengizi fojiasi, qishloq xo'jaligi, kimyoviy ifloslanish, irrigatsiya inqirozi, ijtimoiy-ekologik oqibatlar, O'zbekiston SSR, sovet iqtisodiy siyosati.

**Kirish.** O'zbekistonning eng yangi tarixini xolisona va ilmiy jihatdan o'rganish bugungi kunda g'oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini yaxshilash va xalqimizga yetkazish - bizning muhim burchimizdir" [1]. Ushbu yo'nalishda XX asrning 60-80-yillari O'zbekiston SSRning qishloq xo'jaligi tarixi uchun eng murakkab va ziddiyatli davrlardan biri hisoblanadi.

Ushbu davrda amalga oshirilgan ekstensiv dehqonchilik siyosati paxta monokulturasini vujudga keltirdi. Respublika qishloq xo'jaligining markazga xomashyo yetkazib beruvchi monofunksional tizimga aylantirilishi uzoq muddatli ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik inqirozlarga sabab bo'ldi.

Tadqiqotning maqsadi: O'zbekiston SSR qishloq xo'jaligini tizimli tahlil qilish va paxta monokulturasining ijtimoiy-ekologik oqibatlarini ilmiy jihatdan ochib berishdan iborat.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Paxta monokulturasini muammosi mahalliy va xalqaro olimlar tomonidan o'rganilgan.

R.Hasanov, Sh.O'ljayeva va O.Musayevlar [2] O'zbekiston qishloq xo'jaligi tarixini umumiy jihatdan yoritishgan bo'lsa, I.A.Karimov [3] sovet davrining salbiy merosini mustaqillik nuqtayi nazaridan tahlil qilgan. F.N.Choriyev [4] paxta ustunligi siyosatining kuchayishi va oqibatlarini batafsil o'rganib, bu mavzudagi eng muhim tadqiqotlardan birini amalga oshirgan.

R.To'xtayeva [5] XX asrning 60-80-yillaridagi iqtisodiy jarayonlarni ijtimoiy fanlar kontekstida ko'rib chiqqan bo'lsa, Sh.M.Rahmatullayev va Sh.Y. Salimov [6] mustaqillik arafasidagi ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini tadqiq etishgan. D.Bobojonova [7] esa O'zbekiston qishloq aholisining turmush tarzi va iqtisodiy ahvolini 70-80-yillar misolida batafsil yoritgan.

Xalqaro adabiyotlar orasida D.Tarr va E.Trushinning [8] Jahon banki uchun tayyorlagan hujjati paxta siyosati bilan Orol fojiasi o'rtasidagi to'g'ri bog'liqlikni empirik dalillar asosida isbotlaydi. P.Miklining [9] ikki asarida Orol dengizining degradatsiyasi ilmiy jihatdan to'liq yoritilgan. Xalqaro inqiroz guruhi (ICG) hisoboti [10] esa Markaziy

Osiyodagi paxta monokulturasini mintaqaviy miqyosda ko'rib chiqqan.

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu muammo ko'pincha alohida jihatlar ekologiya, iqtisodiyot yoki ijtimoiy sohalar bo'yicha o'rganilgan. Ushbu maqola iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik o'lchamlarni birgalikda tizimli tahlil qilishga urinishdir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda to'rtta metodologik yondashuv qo'llanildi. Birinchi manbalar triangulyatsiyasi: sovet davri rasmiy statistikasi, arxiv hujjatlar va mustaqil xalqaro nashrlar o'zaro qiyoslandi; bu sovet statistikasidagi raqamlar bilan real ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat o'rtasidagi nomutanosibliklarni aniqlashga imkon berdi. Ikkinchi tarixiy davrlashtirish va qiyosiy tahlil: qishloq xo'jaligining uch bosqichi ajratildi: kengayish davri (1960-yillar), maksimal zo'r berib ishlatish davri (1970-yillar) va tizimli inqiroz davri (1980-yillar).

Uchinchi statistik tahlil va miqdoriy modellash: paxta maydonlari, mineral o'g'it sarfi, irrigatsiya suvi hajmi va Orol dengizi sathi o'zgarishlarining miqdoriy ko'rsatkichlari bir necha mustaqil manbalar bilan o'zaro tekshirib tahlil qilindi. To'rtinchi ijtimoiy-antropologik yondashuv: qishloq aholisining turmush tarzi, mehnat sharoitlari va sog'liq holati gumanitar nuqtayi nazardan baholandi; bu yondashuv statistik ko'rsatkichlar ortidagi insoniy oqibatlarni aniqroq ko'rsatishga xizmat qildi.

**Tahlil va natijalar.** O'zbekiston SSR qishloq xo'jaligi "paxta mustaqilligi" shiori ostida markazning xomashyo bazasiga aylantirildi. Sug'orish yerlarida paxta egallagan ulush 1960-yildagi 61 foizdan 1980-yilga kelib 70 foizdan oshdi. 1980-yilda rekord bo'lgan 6,2 million tonna paxta yetishtirildi [11]. Biroq yetishtirilgan paxtaning atigi 7-10 foizi mahalliy darajada qayta ishlangan, qolgan qismi esa xomashyo sifatida Markazga jo'natilgan [12]. Bu holat respublika iqtisodiyotini qo'shimcha qiymat yaratishdan mahrum etdi va iqtisodiy rivojlanishning asosiy imkoniyatlarini cheklab qo'ydi.

1-jadval. O'zbekiston SSRda paxta ishlab chiqarishning asosiy ko'rsatkichlari (1960-1985)

Ko'rsatkich	1960	1970	1980	1985
Paxta maydonlari (mln. ga)	1,5	1,8	2,1	2,1
Hosildorlik (tonna/ga)	2,0	2,4	2,9	3,0
Jami ishlab chiqarish (mln. t)	3,0	4,4	6,2	5,8
Paxta ekilgan yer ulushi (%)	61%	66%	70%	72%

Manba: "Narodnoe xozyaystvo UzSSR" statistik to'plamlari; Choriyev F. N. [12] asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Paxta hosildorligini sun'iy oshirish maqsadida mineral o'g'itlar sarfi 1951-yildagi 0,9 million tonnadan 1980-yilda 5 million tonnagacha ko'tarildi. 1989-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, paxta hududlarida har bir kishiga 25-45 kg zaharli ximikat to'g'ri kelgan bu jahon o'rtacha ko'rsatkichidan (0,3 kg) yuzlab barobar ortiq [13]. Defoliantlar va pestitsidlarning ommaviy qo'llanilishi nafaqat tuproq unumdorligiga, balki yerosti suvlari va atmosferaga ham jiddiy zarar yetkazdi.

Oqibatda Qoraqalpog'istonda ich terlama kasalligi Ittifoq o'rtacha ko'rsatkichidan 23 barobar, chaqaloqlar o'limi esa 1000 tug'ilishda 100 tadan oshib ketgan (Ittifoq o'rtachasi 26/1000) [14]. Zaharli kimyoviy moddalar bilan ifloslangan ona suti tufayli shifokorlar go'daklarni emizishni tavsiya

etmagan holatlar ham qayd etilgan, bu esa mintaqadagi ekologik inqirozning insoniy miqyosini yaqqol ko'rsatib beradi.

Ekstensiv sug'orish kengayishi natijasida Amudaryo va Sirdaryoning Orol dengiziga quyilishi 1960-yildagi 50-60 km<sup>3</sup> dan 1980-yillar oxiriga kelib 5 km<sup>3</sup> gacha keskin kamaydi. Orol sathi 14,5 metrga pasayib, hajmi 3 baravar qisqardi [15]. Qurigan dengiz tubidan yiliga 100 million tonnadan ortiq zaharli qum va tuz atmosferaga ko'tarilib, mintaqaning ekologik muvozanatini butunlay buzdi. Baliqchilik sanoati esa to'liq yo'q bo'lib ketdi: 1960-yillarda yiliga 40-50 ming tonna baliq ovlangan bo'lsa, 1980-yillar oxirida bu raqam nolga yaqinlashdi.

2-jadval. Orol dengizi degradatsiyasining asosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	1960-yil	1980-yil	1989-yil
Dengizga quyilgan suv (km <sup>3</sup> /yil)	50-60	15-20	~5
Dengiz sathining pasayishi (m)	--	-8	-14,5
Suv sirtining qisqarishi (%)	0%	-35%	-50%
Suvning shorligi (g/litr)	10	23	38+

Manba: Tarr D., Trushin E. [7]; Xalqaro inqiroz guruhi [10] ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

1990-yilda respublika aholisining 45 foizi (taxminan 8,8 mln. kishi) qashshoqlik chegarasida yashagan. Qishloq aholisining atigi 5 foizi markazlashgan kanalizatsiya tizimiga, 17 foizi esa tabiiy gaz ta'minotiga ega bo'lgan [16]. Mehnat sharoitlari ham og'ir edi: paxta terimi mavsumida bolalar va ayollar o'qishdan va uy-ro'zg'or ishlaridan ajralib, dala mehnatiga majbur qilingan. Bu holat mintaqadagi ijtimoiy tengsizlikni yanada chuqurlashtirdi.

1989-yilda dastlabki o'zgarishlar boshlandi: aholiga tomorqa uchun 700 gektardan ortiq yer ajratildi, bu ijtimoiy keskinlikni biroz yumshatishga xizmat qildi [17]. Shu bilan birga, mustaqillik arafasida qishloq xo'jaligini isloh qilish

zaruriyati tobora aniq ko'rina boshladi, chunki mavjud tizimning barqarorligini saqlash imkonsiz darajaga yetgandi.

**Xulosa va takliflar.** XX asrning 60-80-yillarida amalga oshirilgan sovet qishloq xo'jaligi siyosati O'zbekiston SSRni xomashyo yetkazib beruvchi mintaqaga aylantirdi. Paxta monokulturasini iqtisodiy diversifikatsiyani yo'q qildi, global miqyosdagi ekologik fojiga Orol dengizining qurishiga zamin hozirladi va aholi sog'lig'iga tuzatib bo'lmas zarar yetkazdi. Ushbu tajriba zamonaviy qishloq xo'jaligi siyosati uchun muhim tarixiy saboq bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi: 1) tomchilatib sug'orish kabi suv tejovchi

texnologiyalarni joriy etish orqali irrigatsiya inqirozining takrorlanishiga yo'l qo'ymaslik; 2) biologik usullar orqali qurigan Orol tubini barqarorlashtirish ishlarini kengaytirish; 3) tuproq unumdorligini tiklashda organik o'g'itlar va biologik

himoya usullarini keng qo'llash mexanizmlarini ishlab chiqish; 4) arxiv tadqiqotlarni chuqurlashtirish va natijalarni zamonaviy agrar islohotlar strategiyasiga tatbiq etish.

#### ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - T. 1. - Toshkent: O'zbekiston, 2017. - 488 b.
2. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2017. - 485 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2021. - 464 b.
4. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka ostonasida. - Toshkent: O'zbekiston, 2011. - 432 b.
5. Hasanov R., O'ljayeva Sh., Musayev O. O'zbekistonning eng yangi tarixi: o'quv qo'llama. - Toshkent: Fan va texnologiya nashriyot-matbaa uyi, 2022. - 424 b.
6. Bobojonova D. O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar (70-80-yillar misolida). - Toshkent: Sharq, 1999. - 210 b.
7. Tarr D., Trushin E. Did the desire for cotton self-sufficiency cause the Aral Sea ecological disaster? - Washington D.C.: World Bank Policy Research Working Paper, 1994. - 38 p.
8. Zanca R.G. Uzbek Village Reconsidered: Life and Labour in Boburkent. - Indianapolis: Indiana University Press, 2011. - 242 p.
9. Micklin P. The Aral Sea Basin: A Critical Environmental Zone. Environment: Science and Policy for Sustainable Development. - Washington D.C., 1992. - Vol. 34. - Pp. 4-38.
10. International Crisis Group. The Curse of Cotton: Central Asia's Destructive Monoculture. - ICG Asia Report No. 93. - Brussels-Bishkek, 2005. - 60 p.
11. O'zbekiston SSR qishloq xo'jaligining 1960-1980-yillardagi tizimli tahlili: maqolalar to'plami. - Toshkent, 2024. - 318 b.
12. Choriyev F.N. O'zbekiston SSR qishloq xo'jaligida paxta ustunligi siyosatining kuchayishi va uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini (XX asrning 60-80-yillari): PhD dissertatsiyasi. - Toshkent, 2025. - 178 b.
13. To'xtayeva R. XX asrning 60-80-yillarida O'zbekistonda iqtisodiy hayot. Ijtimoiy fanlar bo'yicha jahon byulleteni. - 2023. - 21-jild. - B. 45-52.
14. Choriyev F.N. O'zbekiston SSR qishloq xo'jaligida paxta ustunligi siyosatining kuchayishi va uning oqibatlarini. MJBAS. - 2025. - 9-jild, 3-son. - B. 112-124.
15. Rahmatullayev Sh.M., Salimov Sh.Y. O'zbekiston 1980-yillarning oxiri va 1990-yillarning boshlarida: sovet modernizatsiyasining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini. Journal of Critical Reviews. - 2020. - 7-jild, 17-son. - B. 203-211.
16. To'xtayeva R.N., Mavlonova B.A. O'zbekiston aholisining ijtimoiy va maishiy turmush tarzi (XX asrning 60-70-yillarida). Pedagogik klaster. - 2025. - 3-jild, 12-son. - B. 78-89.
17. Micklin P. The Aral Sea Disaster. Annual Review of Earth and Planetary Sciences. - 2007. - Vol. 35. - Pp. 47-72.